https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Raximova Feruza Farxodovna
BuxDPI Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistri.
raximovaferuza.98.504@gmail.com

PADLET ILOVASI YORDAMIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda odob-axloq tushunchalarini zamonaviy ilovalar yordamida rivojlantirish, ayniqsa, padlet ilovasining imkoniyatlari hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda fanlar kesimida deontologik kompetensiyaning shakllanib borishi va ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ilovalarni qo‘llash samaradorligi, deontologik kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar va amaliyotga qo‘llanilayotgan usullarning tanqidi, yangicha yondashuvlar haqida fikr mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar

Pedagog, zamonaviy ilovalar, padlet ilovasi, odob-axloq, deontologiya, kompetensiya,kasbiy kompetentlik, o‘qituvchi kompetensiyasi, bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРИЛОЖЕНИЯ PADLET

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы развития этических представлений у будущих учителей с использованием современных приложений, в частности, возможностей приложения Padlet, формирования деонтологической компетентности будущих учителей разных дисциплин,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

эффективности использования современных приложений в образовательном процессе, рекомендации по развитию деонтологической компетентности, критика применяемых на практике методов и новые подходы.

Ключевые слова

Учитель, современные приложения, приложение Padlet, этика, деонтология, компетентность, профессиональная компетентность, компетентность учителя, знания, умения, навыки, квалификация, опыт.

PEDAGOGICAL CONTENT OF DEVELOPING DEONTOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS USING THE PADLET APPLICATION

Abstract

This article discusses the development of ethical concepts in future teachers using modern applications, in particular, the possibilities of the padlet application, the formation of deontological competence in future teachers across disciplines, the effectiveness of using modern applications in the educational process, recommendations for the development of deontological competence, criticism of the methods used in practice, and new approaches.

Keywords

Teacher, modern applications, padlet application, ethics, deontology, competence, professional competence, teacher competence, knowledge, skills, qualifications, experience

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar ta’lim sifati va tarbiyaviy samaradorlikni oshirish vositasi sifatida tobora dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy tayyorgarligida deontologik kompetentlikni shakllantirishda zamonaviy raqamli vositalar - xususan, Padlet ilovasidan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Deontologik kompetentlik o‘qituvchining axloqiy ongini, kasbiy mas’uliyatini, tarbiyaviy namunaliligini va pedagogik faoliyatdagi madaniyatini ifodalaydi. O‘zbekiston

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Respublikasi Ta’lim sohasini raqamlashtirish strategiyasi (2021–2030)da raqamli vositalarni kasbiy tayyorgarlikka joriy etish alohida yo‘nalish sifatida belgilangan. Padlet - bu virtual doska ko‘rinishidagi interaktiv platforma bo‘lib, u o‘quvchilar fikrini ifodalash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, hamkorlikda o‘rganish va bahs yuritishda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu maqolaning maqsadi - Padlet ilovasi yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslarini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim imkoniyatlaridan keng foydalanish haqida bir qancha olim va olimalarimiz o‘z fikr va mulohazalarini bildirishgan. Xususan o‘zbek olimlarining zamonaviy ilovalar va raqamli texnologiyalar bo‘yicha ilmiy fikrlari yanada ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish uchun samarali ta’sirga ega.Ayniqsa, o‘zbek olimlaridan quyidagilarning asarlarida va teran hamda boy fikrlarida uchratishimiz mumkin. Sattorov B.T. - raqamli pedagogika va innovatsion texnologiyalar asarida zamonaviy ilovalar va ulardan foydalanishning imkoniyatlari borasida fikr mulohazalar keltirilgan.Shuningdek, Sattorovning quyidagi asarlarida ham zamonaviy ta’lim texnologiyalariga alohida urg‘u berilgan: “Pedagogik texnologiyalar: nazariyasi va amaliyoti” (2021), “Raqamli pedagogika asoslari” (2022). Sattorov B.T quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “Raqamli muhitda ta’lim-bu o‘qituvchining faqat texnologik emas, balki axloqiy va kommunikativ kompetensiyalarini ham faol rivojlantiruvchi omildir. Zamonaviy ilovalar - bu axloqiy muammolarni muhokama qilish uchun ochiq maydoncha.” U Padlet, Mentimeter, Kahoot kabi ilovalarning shaxsiy fikr bildirish va kasbiy refleksiyani rivojlantirishdagi rolini alohida ta’kidlaydi [1]. To‘xtayeva M.A. - axborot texnologiyalarining ta’limdagi roli asarlarida hamda “Raqamli vositalar orqali talabalarda axloqiy ongni shakllantirish” (maqola, 2020), “Interaktiv texnologiyalar yordamida kompetensiya rivojlantirish” (2021)asarlarida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan: “Interaktiv ilovalar o‘quvchini faollashtiradi. Ayniqsa, deontologik kompetensiyani shakllantirishda vaziyatli tahlillarni (keys)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Padlet, Google Jamboard orqali muhokama qilish samarali vosita hisoblanadi.”[3]. O‘zbek olimi Qodirov S.M. - deontologik kompetensiya bo‘yicha mutaxassis hisoblanadi.Uning quyidagi asarlari mavjud: “Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik madaniyat” (2020), “Kasbiy etikani shakllantirishda zamonaviy vositalar” (2022).Ushbu fikrlar Qodirov S.M ga tegishlidir: “Axloqiy kompetensiya faqat nutqiy tarzda emas, balki axborot muhiti orqali rivojlanadi. Padlet kabi platformalar o‘quvchini o‘z pozitsiyasini ochiq ifoda etishga, boshqalarning fikriga nisbatan tolerant bo‘lishga undaydi. Bu - deontologiyaning amaliy ko‘rinishidir.”[2]. Azizova D.X. - raqamli vositalar va axloqiy tarbiya integratsiyasi asari aynan zamonaviy ta’limda ilovalrning ahamiyati haqidadir.Olima quyidagi asarlarni yozgan: “Bo‘lajak pedagoglarda axloqiy kompetensiyani shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni” (dissertatsiya bo‘limi, 2021), “Padlet ilovasi: interaktiv axloqiy tarbiya vositasi” (maqola, 2023). Uning quyidagi fikrlari aynan padlet ilovasining yanada samarali ekanligini ifodalaydi : “Padlet orqali olib borilgan muhokamalar, ayniqsa, o‘quvchilarning o‘zaro madaniy muloqoti, axloqiy baholash va konstruktiv tanqidni rivojlantirishda katta imkoniyat yaratadi” [4]. Usmonova N.X. - zamonaviy pedagogik texnologiyalar asarida deontologik kompetentlikni zamonaviy ilovalar yordamida yanada rivojlantirish mumkinligini aytib o‘tgan. Olimaning quyidagi asarlari mavjud: “Innovatsion texnologiyalar asosida kompetensiyaviy yondashuv” (2020), “Pedagogik faoliyatda axloqiy me’yorlar va raqamli muhit” (2021).Ushbu fikri esa raqamli vositalarning deontologik kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati yuqori ekanligini yana bir bor isbotlaydi: “Bugungi kunda raqamli vositalar faqat ta’lim berish emas, balki kasbiy tarbiya vositasiga aylanmoqda. Ularning zamirida tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat, halollik kabi qadriyatlar tarbiyalanmoqda.” [5].


Tahlil va olingan natijalar. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetensiyalarini zamonaviy ilovalar asosida rivojlantirish ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Jahon miqyosida ta’lim sifati va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

samaradorligini oshirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir davrda, pedagogik jarayonni yangicha qarashlar, kreativ metodlar va ilg‘or texnologiyalar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetensiyalarini zamonaviy ilovalar asosida rivojlantirish zarurati dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Deontologik kompetensiyalarini zamonaviy ilovalar asosida rivojlantirish ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash,talabalarning axloqiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni mustaqil tadqiqot olib borishga undash orqali o‘z ifodasini topadi. Zamonaviy pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, kreativ metod va vositalar hamda ilovalar talabalarning qiziqishini oshirish, ularning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlash va natijada bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetensiyalarini zamonaviy ilovalar asosida rivojlantirish ularning kasbiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Zamonaviy o‘qituvchi talabalarga mustaqil izlanish olib borish, muammolarga yechim topishda va kreativ fikrlash bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan yetakchi sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shu sababli, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va kreativ ta’lim vositalaridan samarali foydalanish bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu sababli bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetensiyalarini zamonaviy ilovalar asosida rivojlantirishga bo‘lgan talab yuqorilab, dars samaradorligini oshirish, darsni sifatli va kreativ tashkil qilishga muhim e’tibor qaratishni taqazo qilmoqda (1-rasmga qarang).

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026




1-rasm. Oliy ta’limda pedagogik fanlarni o‘qitishning asosiy shakllari

Ta’limning shakli va metodlarini to‘g‘ri tanlash ahamiyatli bo‘lgani kabi ta’lim vositalarini ham o‘z o‘rnida va muvofiq tarzda qo‘llash zarur. Har bir ta’lim vositasini uning turlarga bo‘linishi klassifikatsiyani yaratib, shunga asosan yondashilganda vositalarning qo‘llanishi yanada muvaffaqiyatli natijaga erishishga xizmat qiladi. Dars shakliga va talabalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda vositalarni tanlash va ularni dars jarayonida bevosita qo‘llash innovatsion faoliyatni tashkil qilishning ajralmas bir qismi bo‘lib hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, zamonaviy pedagog kadrlar pedagogik faoliyati davomida darsni samarali va qiziqarli tarzda tashkil qilish uchun vositalarni ham mos tarzda tanlash lozimligiga alohida e’tibor qaratish kerakBugungi tezkor rivojlanayotgan axborot makonida o‘qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki axloqiy namunaviy shaxs bo‘lishi zarurati kuchaymoqda. Shu boisdan ham pedagogik ta’limda deontologik kompetentlikni shakllantirishni innovatsion usullar bilan boyitish zamon talabi bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni singdirishda odatiy ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shuning uchun ham interaktiv, reflektiv va raqamli texnologiyalar asosidagi ta’lim zarurdir. Shuning uchun hozirgi vaqtda dars samaradorligini oshirish hamda bo‘lajak

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o‘qituvchilarda axloqiy xususiyatlarni shakllantirish maqsadida bir nechta zamonaviy ilovalar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz (2 - rasmga qarang).

Ular quyidagilar:



2- rasm.Deontologik kompetentlikni rivojlantiruvchi zamonaviy ilovalar

Padlet ilovasi - Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangi, interaktiv va ijodiy yondashuvlarni olib kirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Padlet ilovasi bugungi kunda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro interaktiv hamkorligini ta’minlovchi muhim raqamli platformalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Padlet - bu foydalanuvchilarga virtual devor (taxta) yaratish, unga matn, rasm, video, havola, hujjat, audio va boshqa turdagi fayllarni joylashtirish imkonini beruvchi veb-asosli hamkorlik platformasidir. Ilova "bulutli xizmat" sifatida faoliyat yuritadi va har qanday qurilmadan (kompyuter, planshet, telefon) foydalanish mumkin.

Padlet ilovasining asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1.Virtual devorlar yaratish - o‘qituvchi yoki o‘quvchi turli mavzular bo‘yicha devor (padlet) ochadi;

2.Post joylashtirish - foydalanuvchilar devorga yozma fikr, savol, rasm, havola, video yoki fayl yuklashi mumkin;

3.Hamkorlik rejimi - bir nechta foydalanuvchi bir vaqtda bir devor ustida ishlashi mumkin (3 - rasmga qarang)



3 - rasm.Padlet ilovasining ko‘rinishi.

Ko‘rinish turlari-“Grid”, “Stream”, “Shelf”, “Map” kabi turli tartiblarda taqdimot qilish;

Yozuvga izoh qoldirish-foydalanuvchilar bir-birining postlariga izoh va fikr bildira oladi;

Real vaqtda yangilanish-har bir o‘zgarish barcha ishtirokchilar tomonidan darhol ko‘riladi;

Xavfsizlik va maxfiylik-devorlar faqat link orqali, ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar yoki parol orqali ko‘rish imkonini beradi.

Padlet ilovasining ta’limdagi ahamiyati juda xilma-xildir. Pedagogik jarayonda Padlet ilovasining ahamiyati quyidagicha ifodalanadi:

1. Kollaborativ o‘qitish-Padlet o‘quvchilar va o‘qituvchilarni birgalikda ishlashga, bilim va g‘oyalarni almashishga undaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

2. Ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish-Talabalar o‘z fikrini turli formatlarda (matn, rasm, video) ifodalaydi, bu esa ularning kreativ salohiyatini rivojlantiradi.

3. Refleksiya va tahlil qilish-Darsdan so‘ng o‘quvchilar Padlet orqali o‘z fikrlarini bildiradilar, bu esa o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Ta’lim motivatsiyasini oshirish-Interaktivlik, moslashuvchanlik va shaxsiy yondashuv o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

5. Deontologik kompetentlikni rivojlantirishda qo‘llanilishi-Padlet orqali o‘quvchilar bir-birining fikrini hurmat qilish, etik munosabat bildirish, hamkorlikda ishlash kabi axloqiy-me’yoriy qadriyatlarni o‘zlashtiradilar.

Padlet ilovasidan foydalanishning amaliy shakllari sifatida quyidagilarni keltirib o ‘tishimiz mumkin:

-Darsdan oldin-savol-javob yoki bilimlarni faollashtirish vositasi sifatida;

-Dars paytida-guruhli ishlarda g‘oyalar jamlanmasini yaratish;

-Darsdan so‘ng - refleksiya, mustahkamlash yoki mustaqil topshiriqlarni bajarishda.

Padlet ilovasi raqamli ta’lim muhitining zamonaviy vositasi sifatida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, shuningdek, o‘zaro hurmat, axloqiy normalarga amal qilish (deontologik kompetentlik) kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun u o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsion kompetensiyasini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Padlet ilovasining ta’limda qo‘llanishi va deontologik kompetentlikni shakllantirishdagi o‘rni katta ekanligi aniqlandi.

Munozara. Zamonaviy ta’lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etilmaydi. Yangi avlod o‘qituvchisi nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi, balki ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalana olish kompetensiyasiga ham ega bo‘lishi kerak. Shu nuqtai nazardan Padlet ilovasi pedagogik faoliyatda keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Padlet ilovasining pedagogik imkoniyatlari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Padlet-bu interaktiv onlayn devor bo‘lib, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘zaro axborot almashadi, fikr bildiradi va loyihalar ustida birgalikda ishlaydi. Ilova real vaqt rejimida ishlaydi, bu esa ta’lim jarayonini jonlantiradi va o‘quvchilarni faollikka undaydi.

Ushbu platforma orqali:

Dars mavzusi yuzasidan fikrlar to‘planadi;

O‘quvchilarning ijodkorlik salohiyati rivojlanadi;

Raqamli savodxonlik va axloqiy-ijtimoyiy madaniyat shakllanadi;

Deontologik kompetentlik-ya’ni o‘z fikrini odob doirasida ifoda qilish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, hamkorlikda ishlash kabi fazilatlar rivojlanadi.

Padlet ilovasini turli pedagogik sohalarda qo‘llash mumkin.Bu nafaqat yangi bilimlarni o‘zlashtirishga balki bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetensiyalarni shakllanishiga olib keladi

Padlet ilovasi nafaqat umumta’lim darslarida, balki kasbiy, maxsus va tarbiyaviy jarayonlarda ham samarali vosita hisoblanadi (.1 - jadvalga qarang)

1 - jadval

Padlet ilovasining turli fan sohalarida qo‘llanilishi.

Yo‘nalish	**Qo‘llanish shakli**	**Misol**
1.Umumta’lim fanlari	Matn, masala, rasm, chizma joylashtirish	Biologiyada hujayra tuzilmasi rasmlarini umumlashtirish
2. Til va adabiyot	She’r, matn tahlili, esse yozish	Har bir o‘quvchi adabiy obrazga oid fikrini post qiladi
3.Kasbiy pedagogika	Dars ishlanma, kuzatuv, metodik mulohaza	Mikrodars tahlilini Padletda izohli tarzda yoritish
4. Tarbiyaviy jarayon	Kayfiyat ifodasi, muammoli vaziyat tahlili	O‘quvchilar axloqiy vaziyatga izoh beradilar
5. Maxsus pedagogika	Vizual va audio materiallar bilan ishlash	Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga audio va video asosida topshiriq

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

		berish

Padlet ilovasini ishlatish bo‘yicha quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Bosqich: Maqsadni aniqlashdan iborat. Darsda qanday pedagogik maqsadga erishilmoqchi - bu aniqlanadi.

2. Bosqich: Padlet devorini yaratish - O‘qituvchi padlet.com sayti orqali devor yaratadi va kerakli sozlamalarni o‘rnatadi (fon, nom, xavfsizlik darajasi).

3. Bosqich: Foydalanuvchilarni jalb qilish - O‘quvchilarga havola yuboriladi. Ularga qanday ma’lumot joylashtirish tushuntiriladi.

4. Bosqich: Faoliyatni amalga oshirish - O‘quvchilar post joylashtiradi, boshqalar bilan muloqotga kirishadi, izohlar yozadi.

5. Bosqich: Baholash va refleksiya - O‘qituvchi faol qatnashganlarni rag‘batlantiradi, umumiy tahlil o‘tkazadi.

6. Bosqich: Natijalarni saqlash va baham ko‘rish - Devordagi materiallar pdf shaklida yuklab olinadi yoki boshqa guruhlarda foydalanish uchun saqlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim va axborot texnologiyalarining keng va samarali qo‘llanilishi,ayniqsa oliy ta’lim tizimida keng foydalanilishi ta’lim sifati va natijasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.Zamonaviy ilovalardan darsning turli qismlarida foydalanish mavzuning yanada tushunarli va esda qolarli bo‘lishiga olib keladi.Ayniqsa, zamonaviy ilovalarning deontologik kompetentlikni rivojlantirishdagi roli quyidagilardan iborat. Xususan padlet ilovasi yordamida oliy ta’lim talabalarida quyidagilar shakllanadi.

Padlet orqali olib borilgan faoliyat natijasida:

-O‘quvchilar o‘z fikrini madaniy shaklda ifodalaydi;

- Boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashishni o‘rganadi;

- Hamkorlikda ishlash malakasi shakllanadi;

-Tanqidiy va ijobiy fikr bildirish odobi mustahkamlanadi;

- Onlayn muloqot madaniyati shakllanadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Bu esa aynan bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhim bo‘lgan deontologik kompetentlik tarkibiy qismlarini amaliy shaklda shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sattorov B.T. “Pedagogik texnologiyalar: nazariyasi va amaliyoti”. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
2. Qodirov S.M. “Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik madaniyat”. - Buxoro, 2020.
3. To‘xtayeva M.A. “Interaktiv texnologiyalar yordamida kompetensiya rivojlantirish”, “Ta’lim muammolari” jurnali, 2021.
4. Azizova D.X. “Padlet ilovasi: interaktiv axloqiy tarbiya vositasi”, “Yosh olimlar jurnali”, 2023.
5. Usmonova N.X. “Pedagogik faoliyatda axloqiy me’yorlar va raqamli muhit”, Oliy ta’lim muammolari, 2021.
6 Axmedova M.T.Pedagogik kompitentlik. Uslubiy qo‘llanma. T.: BROK CLASS SERVIS, 2016. - 84 b.
7.N.A Muslimov Kasb ta’limi O’qituvchilarning kasbiy kompitentligini shakllantirish texnologiyasi.Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
8.A.E Kenjaboyev,D.A Kenjaboyeva Pedagogik deontologiya va kompetentlik .Darslik.T.: “Termiz davlat universiteti NMM” nashriyoti ,2022-yil,280 bet.
9.N.N Azizxo’jayeva .Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.O’quv qo’llanma.T.:2006 yil
10.N.A Muslimov .Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini kasbiy shakllantirish.Monografiya.-T.: Fan,2004 yil
11. F.F Raximova.“Bo’lajak o’qituvchilarda deontologik kompitentlikni rivojlantirishning pedagogik mazmuni” xalqaro ilmiy nazariy konferensiya materiallari. Buxoro-2024,176-177 betlar.
12. K.M.Kertayeva, Pedagogik deontologiya asoslari-Avlodlar: PSU,2002-y